“Xorazm viloyati o‘zbek shevalaridagi laqablarning izohli lug‘ati”ini to‘ldirib borish, keyinchalik, Xorazm shevalariga xos ismlar, taxalluslar, so‘ngra to‘liq antroponimlar lug‘atini yaratishni maqsad qilib oldik.

Lug‘atga Xorazm shevalariga xos laqablar kiritilgan bo‘lib, ular adabiy tildan fonetik yoki leksik jihatdan farqlanadi, qo‘shma so‘zlar va so‘z birikmasi, qisqartma shaklidagi laqablar berilgan. Lug‘atda keltirilgan laqablarning olingan manbasi va hududini mazkur so‘z va uning izohidan keyin berib, lug‘at so‘ngida axborotchilar haqida ma’lumot keltirilgan. Laqablar quyidagi shaklda izohlangan:

Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyatiga shularnigina misol qilib keltirishimiz mumkin. Mavjud tadqiqotlarga asoslansak, “Avesto” onomastikasi, kosmonimlar, fitonimlar, biblionimlar, urbanonimlar, Ogahiyning tarixiy asarlari tiliga xos onomastik birliklar lug‘ati yaratilsa, ushbu tadqiqotlarning amalda qo‘llanishigina o‘quvchilarga ko‘proq foyda keltirishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida shakllangan onomastik birliklarning ma’lum bir shaklda tartibga solingan ilovalari mavjud, ammo ular hamon mualliflar tomonidan nashr qilinmagani, bugunga qadar Xorazm onomastlari tomonidan mukammal lug‘at nashr qilinmagani soha lug‘atshunosligining oqsayotganligini ham ko‘rsatib beradi.

Xorazmning qadimiy obidalari, ziyoratgoh-qadamjolar, mashhur bino-inshoot nomlari, masjid-madrasalar, sayyohlar uchun mo‘ljallangan mashhur nomlar lug‘ati, Xorazm adabiy muhiti vakillarining taxalluslari va ularning asarlariga xos onomastik birliklar lug‘atiga ehtiyoj bor. Chunki har bir nom o‘zida xalqning lingvokulturalogik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, ertnolingvistik xususiyatlarini to‘laligicha aks ettiradi.

Toponimika tizimida mavjud muammolarni ko‘rsatuvchi bitta misol keltirsak. Bugungi kunda yo‘lovchilarning aksariyati murojaat qiladigan lokatsiya tizimidagi imloviy xatolar, joy nomlari berilishidagi chalkashliklar, joy nomi asosida izlashning, odatda, besamarligi, ko‘p holatlarda mashhur ovqatlanish shoxobchalari, supermarket yoki boshqa nomdor idora-tashkilotlar nomi asosida izlashga to‘g‘ri kelishining o‘zi ham hudud toponimiyasiga oid muammolarning to‘la hal qilinmaganini ko‘rsatib beradi. Chunki iste’molchi mahalla va boshqa joy nomlarini bilmaydi. Bu esa bugungi kunda Xorazm viloyatidagi rasmiy va norasmiy joy nomlarini o‘rganish ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatadi.

**Xulosa**. Onomastik lug‘atlarning aniq tuzilishi, metodikasi hamon ishlanmagan. Lug‘at yaratishda faqat onomastika bo‘yicha mutaxassis bo‘lishning o‘zi yetarlimasligi, lug‘at yaratishda etnolingvistika, lingvokultirologiyadan va felektiv tillarga xos so‘zliklardan xabardor bo‘lish lozim, bu esa mualliflar jamoasini shakllantirish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shundagina mukammal shakldagi lug‘atni yaratish mumkin. Ushbu belgilangan vazifalarni bajarishda onomastikaga oid tadqiqot olib borayotgan olimlar jamoaning fikri va takliflariga, birgalikda amalga oshiradigan vazifalariga tayaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1977.

(2). Дўсимов З., Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва “Авесто”. Тошкент, “Фан”, 2010.

(3). Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1991.

(4). Qodirova X. Xorazm viloyati o‘zbek shevalaridagi laqablarning izohli lug‘ati. Xorazm, Khwarezm publication, 2024, 148-bet.

(5). Ollayorov Q., Madiyorova V. Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug‘ati. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2017.

(6). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: R.Y.Xudoyberganov va boshqalar. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2022.

**Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;**
**e-mail: njorayeva461@gmail.com)**

## “SMILE/TABASSUM” TUSHUNCHALARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA JINS VA YOSH OMILLARI ASOSIDA IFODALANISHINING LINGVISTIK TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “smile/tabassum” tushunchalarining yosh va jins kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda til orqali qanday ifodalanishi tahlilga tortilgan. Tabassumning rasmiy va norasmiy kontekslardagi verbal ifodalarini taqqoslab, tadqiqot leksik, semantik hamda pragmatik farqlarni yoritishga, shu bilan birga, bu farqlarni sotsiolingvistik va madaniy omillar ta’sirida yuz berganligini o‘rganishdan iborat.*

***Kalit so'zlar:*** *hissiy tushuncha, hissiy ifoda, smile, tabassum, jins, yosh.*

**Жураева Нилуфар Собиржон кизи (преподаватель Термезского государственного педагогического института; e-mail: njorayeva461@gmail.com)**

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТОВ "SMILE/TABASSUM" В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ С УЧЁТОМ ГЕНДЕРНОГО И ВОЗРАСТНОГО ФАКТОРОВ

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается вербальное выражение концептов "smile/tabassum" в английском и узбекском языках с учётом таких характеристик, как возраст и пол. Путём сопоставления вербальных проявлений улыбки в формальных и неформальных контекстах, исследование направлено на выявление лексических, семантических и прагматических различий, а также на изучение влияния социолингвистических и культурных факторов на эти различия.*

***Ключевые слова:*** *эмоциональное понятие, эмоциональное выражение, smile, tabassum, пол, возраст.*

**Jurayeva Nilufar Sobirjon kizi (Teacher at Termez state pedagogical institute; e-mail: njorayeva461@gmail.com)**

## A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE REPRESENTATION OF THE CONCEPTS "SMILE/ TABASSUM" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES BASED ON GENDER AND AGE FACTORS

***Annotation.*** *This article analyzes the verbal expression of the concepts "smile/tabassum" in English and Uzbek languages, taking into account gender and age-related characteristics. By comparing the verbal representations of smiles in formal and informal contexts, the study aims to reveal lexical, semantic, and pragmatic differences, as well as to explore how these differences are influenced by sociolinguistic and cultural factors.*

***Keywords:*** *emotional concept, emotional expression, smile, tabassum, gender, age.*

**Kirish (Introduction).** Tabassum – bu quvonch, do'stlik va ajoyib his-tuyg'ularning universal yuz ifodasi hisoblanib, biroq bu ifoda turli tillar va madaniyatlarda farq qilishi mumkin. Ingliz tilida "smile" so'zi odatda "yuzdagi quvonchli yoki do'stona munosabat bo'lib, bunda og'izning chetlari biroz yuqoriga ko'tariladi, ko'pincha, lablar ochilib, tishlar ko'rinishi" deya ta'rif berilgan [6;1660-b.]. O'zbek tilida asosiy atama "tabassum" hisoblanib, "jilmayish, kulimsirash, shunday holat ifodasi" deb ta'rif berilganiga guvov bo'lamiz [7;625-b.].

Til madaniyat va ijtimoiy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir xil ishora turli madaniyat sharoitlarida turlicha ifodalanishi mumkin. Xususan, ingliz tili so'zlashuvchilar madaniyatida tabassum ya'ni *smile,* ko'pincha, odoblilik va yaqinlashuvchanlik ifodasi hisoblanda, o'zbek madaniyatida yanada chegaralangan, nazoratli, kamtarinlik kabi xususiyatlarga ega ifoda sanaladi [1]. Bu kabi madaniy qarashlardagi tafovutlar tabassumning chastotasiga emas, balki tabassum harakati haqida gapirishlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, ingliz tilida so'zlashuvchilar, ko'pincha, kimningdir "smiling" (kulayotgan) holatini ijobiy xislat sifatida tilga olsalar, o'zbek tilida so'zlashuvchilar madaniyatida tabassum haqida gapirishni ko'proq mazmunli lahzalarga yoki rasmiy vaziyatlarga saqlab qo'yiladi. Muhimi shundaki, jins va yosh omillari bu tendensiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, ayollar va erkaklar tabaasum harakatidan foydalanish va talqin etishda farq qilishi mumkin. Shuningdek, bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar o'rtasida ham tabassumga bo'lgan munosabatda turli me'yorlar mavjud. Masalan, bolalar erkin tabassum qilish xususiyatiga ega bo'lsa, kattalar hamda qariyalar ijtimoiy me'yorlar ta'sirida kamroq jilmayishlari mumkin. Bu farqlar shunchaki yuz ifodasi darajasida emas, balki tabassumning tilda qanday ifodalanishi orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Til orqali ifodalanadigan hissiyotlar va yuz ifodalari turli tillarda turlicha fanlar doirasida keng qamrovli tadqiqotlar obyekti sifatida qarala boshladi. Tabassum–noverbal muloqot shakli sifatida psixologiyada, masalan, Pol Ekmmanning universal yuz ifodalari haqidagi ishlarini, madaniyatlaroaro muloqot sohasini ham misol qilib keltirish mumkin. Ekman va Friesenning universal hissiyotlar haqidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabassum baxt kabi asosiy yuz ifodalari sifatida turli madaniyatlarda baxt hamda do'stlik belgisi deb qaraladi [2]. Anna Verbitskaya ilgari surgan madaniy skriptlar konsepsiyasiga ko'ra, har bir madaniyat tilga singib ketgan me'yorlarga ega bo'lib, ular hissiyotlar qanday ifodalanishi haqida darak beradi [9].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu tadqiqot qiyosiy tilshunoslik yondashuviga asoslanib, ingliz va o'zbek tillarida "smile/tabassum" tushunchalarining jins va yosh omillari nuq-

tayi nazaridan verbal ifodalanishini o‘rganadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli tahlil (qualitative analysis) va sotsiolingvistik izlanishlarga tayangan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Madaniyatlararo pragmatikaning muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, g‘arb madaniyatlarida, asosan, ingliz tilida so‘zlashuvchilar madaniyatida tabassum, ko‘pincha, odob va ijtimoiy munosabatlarning andozasi sifatida qaraladi. Ingliz madaniyatida, odatda, tabassum do‘stona hamda ochiqko‘ngillik belgisi sifatida talqin qilinib, tilda ko‘plab iboralar va maqollar mavjud. Masalan, “*put a smile on someone’s face*” (xursand qilmoq), “*a smile is worth a thousand words*” (Bir tabassum mingta so‘z o‘rnini bosadi) kabilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, tabassum ijtimoiy masofani qisqartirish, iliqlik va birdamlikni namoyon qilish uchun muhim hissiy vosita sanaladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, ayrim boshqa madaniyatlarda doimiy tabassum qilish yuzaki yoki noo‘rin hol sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, Kovner va Vaysmenning Sharqiy Osiyo kontekslari bo‘yicha tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu hududlarda insonlar tez-tez tabassum qilishni ba’zida xursandchilik emas, balki uyat hamda kamtarlik kabi tuyg‘ularni ham anglatishi mumkin [4;28-b.].

Markaziy Osiyo va islomiy qadriyatlarning uyg‘unlashgan ta’siri ostida shakllangan O‘zbek madaniyatida tabassum ingliz madaniyatidan biroz farli ravishda ehtiyotkorroq, nazokatliroq yuz ifodasi sifatida o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, samimiylik hamda mehr-shafqat niyatlarini anglatish hamda, ko‘pincha, hurmat va ehtirom bilan bog‘liq bo‘lgan kontekslarda ishlatishi ham diqqatga sazovor. Ingliz tilida so‘zlashuvchilar madaniyatida tabassumdan farqli o‘laroq, o‘zbek madaniyatida har qanday tasodifiy muloqotda majburiy tabassum qilish odat tusiga kirmagan; masalan, kishi begonalar yoki o‘zidan yuqori mavqedagi kishilar bilan suhbatda betaraf ifoda bilan qolishi hamda tabassumni faqat munosib vaziyatlarda namoyon qilishi mumkin, bu esa jamoat muomalasida kamtarlik va jiddiylik kabi mezonlarni aks ettiradi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar uzoq yillardan beri erkaklar va ayollarning tilni qanday farqli usullarda qo‘llashini, shu jumladan, ularning hissiyotlarni qanday ifodalashi yoki tasvirlashi ustida tadqiqotolib borishmoqda [8;51-b.]. Ayniqsa, Amerika va G‘arbiy jamiyatlar kontekstida doimiy kuzatilib kelinadigan holatlardan biri bu ijtimoiy muloqotlarda ayollar erkaklarga qaraganda ko‘proq tabassum yuz ifodasini qo‘llashidir. Bu farq nafaqat xatti-harakatda, balki odamlarning tabassum haqida qanday gapirishlarida ham aks etmasdan qolmaydi. Masalan, LaFrance, Hecht va Paluk tomonidan olib borilgan 186 ta tadqiqot asosida tayyorlangan metatahlil shuni ko‘rsatdiki, ayollar o‘rtacha hisobda erkaklarga qaraganda ko‘proq tabassumni ifoda etishadi [5;13-b.]. Biroq bu farqning darajasi vaziyat va madaniyatga qarab o‘zgarishi mumkin. Bu xatti-harakatdagi tafovut ijtimoiy sabablar bilan izohlanadi: ko‘plab ayollar tabassum qilishni samimiylikni namoyish etish yoki mehribon ko‘rinish uchun amalga oshirishlarini aytib o‘tishgan bo‘lsa, erkaklar esa o‘zini nazorat qiluvchi yoki hukmronroq ko‘rinish uchun ko‘proq betaraf yoki cheklangan yuz ifodalaridan foydalanishga moyil bo‘lishadi.

O‘zbek jamiyatida ayollar va erkaklarning tabassum qilish holatlari o‘rtasida sezilarli sotsiokulturologik tafovutlar mavjud, bu holat madaniy qadriyatlar, ijtimoiy rollar va jinsga nisbatan mavjud kutishlar bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek ayollarining tabassum yuz ifodasi, ko‘pincha, odob-axloq, muloyimlik va kamtarlikning ifodasi deb qaraladi [3;26-b.]. Ayniqsa, katta yoshdagi yoki an’anaviy muhitda tarbiya topgan ayollar jamoat joylarida o‘zini kamtar tutishga intilishib, shu bilan birga, ayollarning tabassum qilishi ijtimoiy muloqotda (mehmon kutish, to‘ylar, bayramlar yoki kundalik suhbatlar) iliqlik va ochiqlik belgisi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ikki madaniyatdagi tendensiyalar insonlarning tillariga ham singib ketgan. Adabiyot va shunga o‘xshash badiiy janrlarda ayol personajlar tabassum bilan tasvirlanadi, bu ularning iliqlik hamda mehribonlik xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida “I was as close as that – and he smiled, just this way – and then something seemed to go all over me, like – awful, you know – and I never thought what it meant, of course, but I can see now” (Mark Tven, “The adventures of Tam Sawyer”), o‘zbek tilida “Saodatning qora ko‘zlari meni ishqmusobaqasiga chaqirganday, yarim tabassumda turgan lablari menga allanimlar deganday bo‘lar edi” (G‘afur G‘ulom. “Shum bola”). Erkak personajlar esa tabassum bilan kamroq tavsiflanadi yoki bu faqat muayyan holatlarda (masalan, chin dildan xursand bo‘lganda yoki aksincha, reja tuzayotganda – “zimdan jilmayib”) kabi tasvirlashlar uchraydi. Bundan tashqari, jinsga xos kollokatsiyalar ikki tilda ham mavjud: “*bright smile*”, “*yoqimli tabasssum*” kabi iboralar, odatda, ayollar bilan bog‘lanadi, holbuki, “*grin*” (katta kulgi) yoki “*smirk*” (mulozimliksiz jilmayish), “*irjaymoq*”, “*tirjaymoq*” kabi so‘zlar erkaklarga nisbatan ko‘proq qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz [7;109-b.].

Yosh va tabassum. Yosh faktori ham muloqotdagi xatti-harakatlarga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biridir. Bolalar va kattalar nafaqat tabassum qilish intensivligi, balki ularning tabassumining qanday qabul qilinishi bo‘yicha ham sezilarli farq qiladi. Rivojlanish psixologiyasi sohasidagi kuzatuvlar shuni ko‘rsata-

diki, bolalar katta yoshlilarga qaraganda ancha ko‘proq tabassum qilishadi va kulishadi. Mashhur statistik ma’lumotga ko‘ra, bir kunda o‘rtacha bola 300–400 martagacha kuladi yoki tabassum qiladi, holbuki, kattalarda bu raqam atigi 20–50 marotabani deb qayd etiladi. Raqamlar biroz farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, yondashuvlar ravshan: bolalar quvonchni bemalol va cheklovsiz ifodalaydilar, kattalar esa jamiyat qoidalari, hissiy nazorat yoki mas’uliyat yukining ortishi tufayli yuz ifodalarini ifoda etishda bir qancha cheklovlar qo‘yishadi.

Tilga nazar tashlasak, bu farq, ko‘pincha, “bolaning beg‘ubor tabassumi” kabi iboralarda aks etadi – bunday ifoda poklik va ichki quvonchning cheklovsiz ifodasini uyg‘otadi. Adabiyotda va kundalik nutqda bolalarning “*the innocent smile of a child*” “beg‘am tabassumi” yoki “yoshlikka xos jilmayish” kattalarning ancha sokin, mulohazali tabassumlari bilan qiyoslanadi. Qariyalar esa, odatda, “donolik ifodasi” yoki “muloyim tabassum” bilan tavsiflanadi, ammo bu holat kam uchraydi. Masalan, “*After a long stern lecture, the grandfather finally smiled a little*”, “*Uzoq jiddiy nasihatdan so‘ng, boboning yuzi bir oz tabassumga to‘ldi*” kabi jumlalar qariyaning, odatda, jiddiy ko‘rinishiga nisbatan yuz bergan o‘zgarishni ta’kidlaydi.

O‘zbek madaniyatida esa bu holat yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi. Bolalardan xushchaqchaqlik va ochiq tabassum kutilsa, yoshi ulug‘ insonlar ko‘proq sokin va vazmin yuz ifodasini saqlashadi. O‘zbek tilida yoshi katta kishining jilmayishini “*tabassum qilmoq*” deb ifodalash odatiy hol bo‘lib, bu keng kulgu emas, balki odobli, yumshoq va nazokatli tabassumni ifodalaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek madaniyatida yoshi ulug‘ insonlarning hurmatli va vazmin ko‘rinishda bo‘lishi kerakligi haqidagi ijtimoiy kutishlarga mos keladi [7;19-b.].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida tabassum deyarli hamma joyda uchraydigan ijobiylik belgisi sifatida talqin qilinadi (ko‘plab hosila so‘zlar va frazeologik birliklar bilan), o‘zbek tilida esa tabassum biroz ehtiyotkorlik bilan, nozik ma’noli til birliklari orqali ifodalanadi. Jinsiy rollar va yosh guruhlari bu yondashuvlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi: ayollar va yoshlar, odatda, ko‘proq va ifodali tabassumlar bilan bog‘lanadi, erkaklar va yoshi katta insonlar esa kamroq tabassum qilishadi yoki tabassumni muayyan holatlarda, aniq belgilangan vaziyatlarda namoyon qilishadi, bu holatlar ularning tabassumlari qanday tasvirlanishida ham aks etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):**

(1). Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge, Cambridge University Press, 1987, 345 p.

(2). Ekman, P., Friesen, W. Unmasking the Face: A Guide to Recognizing Emotions from Facial Clues. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1975, 212 p.

(3). Juraeva, N. A Comparative Linguistic Analysis of the Concepts of “Smile” and “Tabassum” in English and Uzbek // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2024, № 34, p. 26–28.

(4). Kowner, R., Wiseman, R. The face in emotion recognition. The impact of culture and context on smiling interpretations. Journal of Nonverbal Behavior. 2003, Vol. 27, № 2, p. 125–130.

(5). LaFrance, M., Hecht, M.A., Paluck, E.L. The contingent smile: A meta-analysis of sex differences in smiling. Psychological Bulletin. 2003, Vol. 129, № 2, p. 305–334.

(6). Longman Dictionary of Contemporary English. 6th ed. Harlow. Pearson Education Limited, 2014, 2081 p.

(7). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev (tahrir). Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 625 bet.

(8). Patti Wood. Gender Differences in Smiling. Body Language Expert Articles. 2011.

(9). Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge, Cambridge University Press, 1999, 328 p.

**Karimova Munisa Yaxyoyevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti “Ingliz tili grammatikasi va tarixi” kafedrasi doktoranti),**
**Imamov Navruz Pattaqulovich (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti “Tillarni o‘qitish” kafedrasi katta o‘qituvchisi; e-mail: nimamov86@gmail.com)**

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE’LNING CHEGARALANMAGANLIK XUSUSIYATI VA HARAKAT TARZI QIYOSIY TAHLILI

***Annotatsiya.*** *Maqolada fe’lning chegaralanganlik xususiyatlari turli tillar misolida qiyosiy-nazariy tahlil qilinib, ularning morfologik va sintaktik kontekstda namoyon bo‘lishi yoritiladi. O‘zbek tilida harakat tarzi yetakchi va ko‘makchi fe’llar orqali ifodalanib, inxoativlik, intensivlik kabi semantik omillarni o‘z ichiga oladi.*